

TARJIMASHUNOSLIK

UO'K(UDC, УДК): 81-26

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI INGLIZCHA TARJIMALARIDA REALIYALARNING IFODALANISHI¹⁵

Tursunov Elmurod Umrzoqovich

O‘zbekiston davlat jahon tillari Universiteti

Ingliz tili nazariy aspektlari №1

kafedrasida katta o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: tursunovelmurod03@gmail.com

Orcid ID 0009-0008-3379-6443

Tel.: +998(93) 5539681

ANNOTATSIYA

Maqolada muayyan millat va xalq turmush tarzi, ijtimoiy sharoitlari va madaniyatiga xos ekvivalentsiz leksika, ya'ni realiyalarning ilmiy ta'rifi, ularni tasniflash muammolari, mazkur sohada tadqiqot olib borgan olimlar va mutaxassislar fikr-mulohazalari, ularni inglizchaga o'g'irishda yuzaga keladigan murakkabliklar hamda bu murakkabliklarni bartaraf etish usullari misollar yordamida ochiqqlangan. Tadqiqot obyekti qilib, o'zbek romannavisligi gultojisi sanalmish A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tanlab olingan bo‘lib, unda istifoda etilgan muqobilsiz leksikalar, ya'ni realiyalar ilmiy ta'riflangan, tasniflangan hamda qiyoslash, aralash va korrelatsion tadqiqot usullari yordamida misollar asosida ingliz tiliga tarjima qilish bo'yicha ilmiy-nazariy xulosa va takliflar ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy va mamlakatimizda sohada izlanish olib borgan olimlar va mutaxassislarning ilmiy yondashuvlari va qarashlari tahlilga tortilgan. Buning natijasi o'laroq, muallifning badiiy tarjimada qo'llanilgan turli realiyalarni inglizchaga o'g'irish bo'yicha ilmiy-nazariy takliflari keltirilgan hamda ekvivalentsiz leksikani tarjima matnida aks ettirishda ekvivalentlik va adekvatlikka erishish usullari ochiqqlangan. Asarning I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar, K. Ermakova hamda M. Rizlar tomonidan ingliz tiliga amalga oshirilgan tarjimalari badiiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi, badiiy tarjimada muqobilsiz leksikani bejirim va to'laqonli ifodalash tamoyillari lingvistik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tekshirilib, tarjima variantlari qiyoslanadi va muallif tomonidan muqobil tarjima variant taklif etiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Realiya,
muqobilsiz leksika,
ekvivalentsiz leksika,
badiiy tarjima,
etnomadaniy
leksikalar,ekzotik
leksikalar, lokalizmlar.

Received: March 10, 2025

Accepted: March 28, 2025

Available online: May 2, 2025

¹⁵ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Tursunov E. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani inglizcha tarjimalarida realiyalarning ifodalanishi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 210-223.

THE REPRESENTATION OF REALITIES IN THE ENGLISH TRANSLATIONS OF ABDULLA KADYRI'S NOVEL "PAST DAYS"

Tursunov Elmurod Umrzakovich

Senior Lecturer, Department of
Theoretical Aspects of English № 1
Uzbek State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan

E-mail: tursunovelmurod03@gmail.com

Orcid ID 0009-0008-3379-6443

Tel.: +998 (93) 5539681

ABSTRACT

The non-equivalent lexical units, that is, the scientific definition of realias, the problems of their classification, the opinions of scientists and specialists who have conducted research in this field, the difficulties that arise when translating them into English, and the methods of overcoming these difficulties, using examples, have been clarified in the article. The novel "Bygone Days" by A. Kadirovi has been chosen as the object of the research, which is considered the crown of Uzbek romanticism, where the non-equivalent lexical units were used. These lexical units were scientifically described, classified, and scientific and theoretical conclusions and proposals for translating them into English were presented based on examples using comparative, mixed and correlational research methods. The scientific approaches and views of foreign and domestic scientists and specialists who conducted research in this field have also been analyzed. As a result, the author's scientific and theoretical proposals for translating various realities used in literary translation into English were presented, and methods for achieving equivalence and adequacy in reflecting non-equivalent lexicons in the translation text were revealed. The translations of the work into English by I. Tukhtasinov, O. Muminov, A. Khamidov, K. Ermakova, and M. Reese are analysed from an artistic and stylistic perspective. The principles of expressive and full expression of the lexicon without alternatives in literary translation are examined from a linguistic and translation studies perspective, translation options are compared, and the author offers alternative translation variants.

KEY WORDS

Realia, non-equivalent lexical units, literary translation, ethnocultural lexical units, exotic lexical units, localisms.

ПЕРЕДАЧА РЕАЛИЙ В АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДАХ РОМАНА АБДУЛЛЫ КАДЫРИ «МИНУВШИЕ ДНИ»

Турсунов Элмурод Умрзакович

старший преподаватель

кафедра теоретических аспектов английского языка №1

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: tursunovelmurod03@gmail.com

Orcid ID 0009-0008-3379-6443

Тел.: +998 (93) 5539681

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается безэквивалентная лексика, т.е. лексические единицы, называющие предметы и явления, специфичные для образа жизни, социальных условий и культуры конкретной нации и народа, исследуется проблема научного определения реалий и их классификации, анализируются мнения ученых и специалистов, проводивших исследования в этой области, выявляются сложности, возникающие при переводе реалий на английский язык, а также на основе примеров демонстрируются способы преодоления этих сложностей. Объектом исследования был избран роман А. Кадыри «Минувшие дни», считающийся шедевром узбекской романистики. Используемая в нем безэквивалентная лексика, то есть реалии, была научно определена и классифицирована, после чего были сделаны научно-теоретические выводы и сформулированы предложения по ее переводу на английский язык с использованием сравнительных, смешанных и корреляционных методов исследования, сопровождающиеся примерами. Также в статье анализируются научные подходы и взгляды зарубежных и отечественных ученых и специалистов, проводивших исследования в данной области. В результате этого приводятся научно-теоретические предложения автора по переводу различных реалий, используемых в художественном тексте, на английский язык, а также раскрываются способы достижения эквивалентности и адекватности в представлении безэквивалентной лексики оригинального текста в переводе. С художественно-стилистической точки зрения анализируются переводы романа на английский язык, выполненные И. Тухтасиновым, О. Муминовым, А. Хамидовым, К. Ермаковой и М. Ризом, с точки зрения языкознания и переводоведения рассматриваются принципы выразительной и полной передачи безэквивалентной лексики в художественном переводе, сравниваются варианты перевода, а также предлагается альтернативный вариант перевода.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Реалии,
безэквивалентная
лексика,
художественный
перевод,
этнокультурные
лексики, экзотические
лексики, локализмы.

KIRISH

Tilshunoslikning psixolingvistika, matn tilshunosligi, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik va shu kabi qator yangi yoʻnalish va sohalari tilning turli jihatlarini chuqur tahlil etish, tildagi mavjud lisoniy va gʻayrilisoniy xususiyatlarni oʻrganish, xalqlarning turmush tarzi, milliy oʻziga xosligi, anʻana va qadriyatlarini tilda namoyon boʻlishi kabi masalalar bilan muntazam shugʻullanib kelmoqda. Dunyo hamjamiyatida mazkur masalalarga yoʻnaltirilgan tadqiqotlar koʻlami ham tobora kengaymoqda. Oʻz navbatida, keyingi yillarda tilshunoslik hamda boshqa turdosh sohalarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari va qoʻlga kiritilgan yutuqlardan tarjimashunoslikdagi mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli bartaraf etishda, sohaning nazariy va amaliy muammolarini izchil yoritishda, soha boʻyicha yetuk mutaxassislarni tayyorlashda samarali foydalanib kelinmoqda. Lingvokulturologiyaning tayanch tushunchalaridan hisoblangan realiyalar (milliy xoslangan soʻzlar) ham tarjimashunoslikning keng tadqiq qilingan hodisalaridan hisoblanib, asosan muqobilsiz leksika tushunchasi kesimida oʻrganiladi.

Maqolada A. Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani inglizcha tarjimalarida realiyalarning ifoda qilinishiga bagʻishlangan. Romanda qoʻllanilgan realiyalar va ularning inglizcha tarjimalarida aks etishi, tarjimada qay darajada oʻz muqobili topgani hamda ularni inglizchaga oʻgirishda qay tamoyilga koʻra ish tutish lozimligi xususida soʻz yuritishdan avval realiya terminining kelib chiqishi, ularni tasniflashga doir maʼlumotlar va turli olimlar tomonidan realiya termini borasida bildirilgan qarashlari ilgari surilgan. Realialarni oʻgirishda tarjimondan oʻgirilayotgan asarda nazarda tutilgan davr ruhiyati, milliy-madaniy qadriyatlari va muayyan millat turmush tarziga xos ijtimoiy-maʼnaviy tushunchalarni puxta oʻrganish talab etiladi. Zero, “muayyan davr yoki adabiy muhit namoyandasi boʻlmish biror yozuvchining asarini tarjimon oʻzi xohlaganicha, oʻz uslubiga “boʻysundirgan” holda, oʻz izniga solib oʻgiraverish mumkin emas. Shuning uchun ham har bir tarjimon oʻz eʼtiqodi, uslubi, oʻz idealiga yaqin adibning asarini tarjima qilgandagina muvaffaqiyat qozona oladi.” (Salomov G., 1983, 134.)

METODLAR

Realiya atamasi oʻrta asr lotin tilidagi **realia** sifatining (*aniq, moddiy* maʼnosida) koʻplik shaklidan (**realia**) olingan boʻlib, muayyan xalq madaniyatiga oid soʻz va iboralarni anglatadi. Tilshunoslikda *realiya* atamasi oʻtgan asrning 50-yillari boshlarida “milliy oʻziga xoslikni ifodalovchi, konkret va moddiy unsurlarni tashuvchi birliklar” sifatida tarjima muammolari bilan bogʻliq holda qoʻllanila boshlangan. Bolgariyalik olimlar S. Vlaxov va S. Florin tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda *realiya* termini va unga sinonim tarzda **muqobilsiz leksika, ekzotik leksikalar, lokalizmlar, kundalik soʻzlar, ajnabiy soʻzlar, etnomadaniy leksikalar, etnoleksemalar** kabi atamalarni uchratish mumkin. (Vlaxov S., Florin S., 1980, 37-45.) Mazkur atamalar muayyan millatning turmush tarzi va madaniyati, tarixiy davri va ijtimoiy tuzumi, davlatchiligi va milliy-madaniy obyektlari va tushunchalarini ifoda qiluvchi va ularni boshqa xalqlardan ajratib koʻrsatuvchi leksik birliklardir.

NATIJALAR

L.S. Barxudarovning taʼkidlashicha, “realiyalarga muayyan xalqqa mansub turli moddiy va maʼnaviy boyliklarni anglatuvchi soʻzlar hisoblanib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) **milliy taomlarning nomlanishi** (rus tilida, *щи, борщ, рассольник, квас, калач*; inglizchada, *muffin, haggis, toffee, butter-scotch, sundae* va boshqalar);
- 2) **milliy kiyim-kechaklar** (rush tilida, *сарафан, душегрейка, кокошник, лапти* va shu kabilar);
- 3) **xalq ogʻzaki ijodi namunalari** (ruscha *частушки*; ingliz tilida, *limericks*);
- 4) **milliy raqs turlari** (rus tilida, *трепак, гонак*; ingliz tilida, *pop-goes-the-weasel*);
- 5) **muayyan mamlakatga xos siyosiy institutlar va ijtimoiy hodisalarni bildiruvchi soʻzlar va turgʻun birikmalar** (masalan, ruschada *агитпункт, красный угол, ударник, дружинник, трудовая вахта*; inglizchada *primaries, caucus, lobbyist* va h.k.);
- 6) **savdo-sotiq va jamoat muassasalari nomlari** (rus tilida, *дом культуры, паркультуры и отдыха*; ingliz tilida, *drugstore, grill-room, drive-in* va shu

kabilar) kiradi.” (Barxudarov L.S., 1975, 94.)

A. A. Reformatskiyga ko‘ra, realiyalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) atoqli otlar, 2) pul birliklari, 3) kishilarga beriladigan lavozim va unvonni bildiruvchi so‘zlar, 4) kiyim-kechak va bezak buyumlari, 5) taom va ichimlik nomlari, 6) ismlar orqali murojaat qilish va titullar. (Reformatskiy A.A., 1996, 139.) Realialarni tasniflashda Sergey Vlastov va Sider Florinlar ularni bir necha turlarga ajratib, har bir turni yana kichik qismlarga bo‘lib, tadqiq etadilar. Realialarni guruhlashda aynan bu tartibda guruhlanishi o‘zining batafsil yoritilgani bilan ajralib turadi. (Vlastov S., Florin S., 1980, 37-45.)

S. Vlastov va S. Florinlarning “Непереводимоевпереводе” kitobida realialar quyidagi to‘rtta asosiy guruhga ajratilib, har bir guruh yana kichik qismlarga bo‘linadi:

- 1) Predmetiga ko‘ra guruhlanishi;
- 2) Joylashuvga ko‘ra guruhlanishi;
- 3) Vaqtga (zamonga) ko‘ra guruhlanishi;
- 4) Tarjimasiga ko‘ra guruhlanishi.

Tadqiqotimizda A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan realialarni Sergey Vlastov va Sider Florinlarning tasniflash usuliga tayangan holda guruhlarga ajratib tadqiq etishga qaror qildik.

1. Geografik realialar

1.1. Muassasa, bino-inshootlar va joy nomlari bilan bog‘liq realialar: **saroy, hujra, tancha, o‘rda, choyxona, shiypon, ling** (ravoq), **bo‘zaxona**;

2. Etnografik realialar:

2.1. Milliy taomlar: **varaqi, holva, nisholda, palov, mayiz** (uzumdan qilingan may) va h.k;

2.2. Kiyim-kechaklar: uy-ro‘zg‘or anjomlari, idish-tovoqlar va jihozlar: **kiygiz, bo‘z ko‘rpa, adras, atlas, qalapoy afzali, miqroz, so‘xta, bo‘ryo, guppi, dakana, paranji, sandal, choydosh, po‘stin, chakmon, kamzul, qiyiq, alacha salla, popoq, chilim, movut, takya** (yostiq), **chilim, suvqovoq, nosqovoq, xurjin, sufa** (“supa” so‘zining qadimiy shakli), **oxir, lagan** va shu kabilar;

2.3. Qadimiy transport vositalari: **arava**;

2.4. Mehnat qurollarini ifoda qiluvchi realiyalar: **tanda, arqoq, go'la**;

2.5. Musiqa, kuy va raqs turlari: **yor-yor, Ifor (kuy nomi), "Yig'larman" (kuy nomi), savt, "Navo"**;

2.6. Musiqa asboblari: **dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay, childirma**;

2.7. Urf-odat va an'analar: **qizlar bazmi, isiriq solmoq, charlar**,

2.8. Mifologiyaga oid so'zlar: **"Alif Laylo", pari**;

3. Etnik realiyalar:

3.1. Muayyan urug', qabila, elat yoki millatning nomlari: **qora chopon, qipchoq, qalmoq**;

3.2. Laqab yoki taxalluslar: **xotinboz, qovoq devona, Xudoybachcha, Nor kalla, beshbosh, kalvak, xalfa**;

3.3. Insonlarni o'zlari istiqomat qilib turgan joy nomlari bilan atalishi: **toshkandlik, marg'ilonlik, qo'qonlik, andijonlik**;

3.4. Salbiy ekpressiv semaga ega, haqoratni ifodalovchi realiyalar: **olabo'ji, xo'vari, avliya (avliyo), devona, juvonmarg, ermakchi, xumsa, da'yus, xalva, kofir**;

3.5. Qadimiy turkiy so'zlar: **siporish, qora chopon, axtaxona, jonso'z, irin, g'italanmoq, muzaxona, taxmon, toqcha, tavanxona, donxona, duvur (g'ala-g'ovur suhbat), chimildiq, rasvo, yag'mo (talon-taroj), banaji, chingilin (bejirim), nazr, yori (ko'mak), yoziq (amal, ish), yasov (qator), tuyg'un (sezgir), bog'iy (isyonchi), qoyil (iqror), qabziyat (dilgirlik), xasm (raqib), chip (g'o, to'siq), tovranoq (tirishmoq), mahal (joy), ashaddu, avqot, yitmoq (yo'q bo'lmoq), yog'iy (yov), to'ng'moq (muzlamoq), yang'iramoq (yangramoq), sokit (osuda), jonib (taraf), saloti xamsa (besh vaqt nazom), hadaf (nishon), qasd, sa'y (harakat), to'rba (to'rva), andi, o'kcha (xayol), yorlaqamoq (afv etmoq), moshinavori (beixtiyor), tomoq (ovqat), tegi-taxti, biylik (hukmronlik), pul berish (oshkor qilmoq), gila (gina), qo'toslamok (jilvalanmoq)**;

3.6. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar: **muvofiguttab, valine'mat, hayya alalfalah, kofir, shahid, istibdod, mansha', zarxarid, tavba, tarahhum, kiroyi, harorati g'ariza, sohira, musaxxar, mustabid, huvalboriy, hifz, subhi shom, aladdavom**,

rajo, tamanno, sa'id, ba'd, musharraf, mustahiq, yamin, azl, talaf, addoi, inshaolloh, shariat, afifa, karima (saxovatli), mujassamai iffat, ra'yi, mone', amsoli, alhamdulillah, padari arus, ta'addi (adovat), masohat (yuza, maydon), xatti mustaqim (to'g'ri chiziq), tag'ofil (bilib bilmaslikka solmoq), firqa (guruh), muazzab (azobdaman), husni va qubhi (ijobiy va salbiy tomonlari), varta (girdob), xon olud (qonga belangan), besar (aqlsiz), astag'firulloh, sunnati nabiyuna (payg'ambarning yo'l-yo'rig'i), istig'no (kibrilanish), iqdom (qadam bosish), kufroni ne'mat (ko'rnamaklik), rioya (andisha), mutalli' (ogoh), e'timod (ishonch), ululamir (katta amir), majhula (noma'lum), xos (amaldorlar), alohozalqiyos, raoyo, muholasa (kelishuv), hoziq (biluvchi), mutaasir (ta'sirlangan), vus'at (kenglik), murur, masbur, vas'iya, madhur, mashvarat, arkonidavlat, muloqot, tavajjuh, minba'd, mutaraddud (ikkilanmoq), si'oyat (chaqimchiliq), binoan anayhi (shunga binoan), musohala (beparvo), mujib (sabab), itob (ta'na), ifo etmoq (ado etmoq), savob, iltifot, xasm, navozish (marhamat), mahram, tavajjuh (g'amxo'rlik), minba'd (bundan so'ng), mutaraddud (ikkilanmoq), binoan alayhi (shunga binoan), sui zan (taxmin), qoni' (qanotlangan), osiy (gunohkor), ajz (ojiza), hannos (makkora), muakkil (farishta), botil bo'lmoq (buzilmoq), indallo (rost), mavzun (benuqson), mufsid (buzuqi), huzn (mung, xafa), alva'ddayn (va'dasiz bo'lmayin), ma'zur (uzrli), savq (tomon), sa'ida (baxtiyor), manhus (yomon, baxtsiz), fahsh (yomon, qabih), mug'oyir (qarama-qarshi), g'ayri mashru' (shariatga qarshi), isror (qattiq kirishish), matluqa (taloq qilingan), mahv (yo'q qilmoq), hafif (mayin), ihtizozot (titrash), tajammul (kerakli narsalar), habis (qabix), tahammul (chidam),

3.7. Fors-tojik tilidan kirib kelgan realiyalar: *chorxari, rupoh, bod fursat, kimxob, kungura, shikast-rext (zarar), parvardigor, xun, baxshish, navozish, padari arus (qaynota), humoyun, tullob, hadoyo, talx, altof, riqqat, obidiyda, aduv, badkirdor, zafaryob, xotiri otir, azimai qaviya, ofiyat, farmonbardor, sarfarozi, boz, suizan (taxmin), istishmom, boz, gumashta, sebi zanaxdon (baqbaqa), bint (qiz), zavj (kuyov), amloki ro'zg'or (ro'zg'orda ishlatiladigan narsalar), rind (nozik), xo'rak*

(ovqat), **bofanda** (to 'quvchi), **dushvor**, **sarvatdor** (davlatmand), **zoni va zoniya** (buzuq er, buzuq xotin), **rustamnamo** (donolik), **simkor** (ish haqi);

4. Umum-siyosiy realiyalar:

4.1. Aholi punktlarini anglatuvchi realiyalar: **Kirovchi**, **Samarqand darvoza**, **Oq tepa**, **Kamolon**, **Chaqar**, **Ko'kcha**, **Bo'z suv**, **Qashqar**, **Qorasaroy**, **Taxtapul**, **Labzax**, **Chig'atoy**, **Sag'bon**, **Eski Jo'va**, **Zanjirlik**, **Xadra**, **Qorategin**, **Chuqur**;

O'zbek romannavisligining gultojisi hisoblanmish "O'tkan kunlar" romani dunyoning ko'pgina tillariga o'girilgan. 2017-yil I. M. Tuxtasinov, O. M. Mo'minov, A. A. Hamidovlar tomonidan, va nihoyat, Islom Karimov fondi buyurtmasiga asosan taniqli ingliz tarjimoni Kerol Ermakova tomonidan "Days Gone By" nomi bilan [Fransiyaning](#) "Nouveau Monde Editions" nashriyotida hamda amerikalik tadqiqotchi va tarjimon Mark Edvard Riz tomonidan 2019-yil "Bygone Days" sarlavhasi ostida ingliz tiliga tarjima qilingan. Romanni har uchala tarjima variantlarida milliy xos so'zlarni (realiyalar)ning qay daraja aks ettirilganligini ko'rish alohida qiziqish va maroq bag'ishlaydi. Tarjimashunoslikka oid maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekvivalentsiz leksikalar, xususan, realiyalarni boshqa tillarga tarjima qilishda qator tarjima usullariga tayaniladi. Sh. Sirojiddinov va G. Odilovalarning ta'kidlashlaricha, ekvivalentsiz leksikani tarjima qilishda 4 tabdil usullaridan foydalaniladi. (Sirojiddinov Sh, Odilova G., 2011, 69-73) Ular:

- 1) **Transliteratsiya usuli;**
- 2) **Kalkalash usuli;**
- 3) **Izohli tarjima usuli;**
- 4) **Yaqinlashtirilgan tarjima qilish usuli.**

Romanning II bo'lim, 1-fasli "Ota-ona orzusi" deb nomlanib, mazkur fasl asarning asosiy qahramonlaridan sanalgan O'zbek oyimning ichki dunyosini yorqin tasviri bilan boshlanadi. Tahlillarimizda "O'tkan kunlar" romanining 2004 yilgi "Sharq" nashriyoti tomonidan chop etilgan nusxasidan foydalanildi.

Asliyat matni:

*"Ul o'z uyida o'lturg'anida ham ustidagi **atlas ko'ylak** bilan **adras mursakni**, **oq shohi dakana** bilan **kahrabo tasbihni** qo'ymay, qish kunlari tanchada*

paryostiqa suyalib, yoz kunlari **ayvonning to‘riga** yoslanib, Hasanalining xotuni bo‘lgan Oybodoqqa, cho‘ri qiz, Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoch oldirmaslikni tanbixlabkina o‘lturar edi.” (Qodiriy A., 2004, 129.) Birgina shu jumlaning o‘zida **atlas ko‘ylak, adras mursak, oq soxi dakana, qahrabo tasbix, paryostiqa, ayvonning to‘ri** kabi milliy xoslangan so‘z va so‘z birikmalari bilan to‘yinganligi ko‘zga tashlanadi. Asliyat matnidan ajratib olingan ushbu ekvivalentsiz leksik birliklar va so‘z birikmalari inglizcha tarjimalarining qay birida asliyatga yaqin tarjima qilinganiga e’tibor qarataylik:

I. Tuxtasinov, O. Mo‘minov, A. Hamidovlar tarjimasi:

*Even if she was at home, she didn’t put off her **satin varicolored clothes, white silk headscarf**, keeping in hands **a turquoise abacus**. In winter time, she was lying, leaning against the **feather pillow** next to the sandal, national heating stove, in summer time, she used to sit in **the terrace**, ordering Oybodok, the wife of Hasanali and to the maid, called Hanifa, saying not to ferment dough and not to overcook pilaf and etc. (Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A.A., 2017, 128-129.)*

M. Riz tarjimasi:

*When at home, she usually wore **a silk atlas shirt** under **an adras overcoat** accompanied by **a white silk turban** as worn by ladies, with **amber prayer beads** in her hands. Uzbek oyim reclined on **a fur pillow** near a sandal during the winter months. The summer months were spent under **the shade of the veranda** from where she gave directions to Oibadok, wife of Hasan Ali and the slave girl Hanifa. Uzbek Oyim was preoccupied with teaching Hanifa her household duties – such as how not to spoil the dough or burn the bottom of the plov. (Reese M., 2019. 153.)*

Kerol Ermakova talqinida:

*At home, dresses always in **a fine atlas dress, a khalat of patterned adras, and a white silk scarf**, with **amber prayer beads** in her hands, she would sit by the sandal in winter, reclining among **downy pillows**, and in summer she would settle herself on the open **veranda in the place of honour** and called either Aibadak,*

Khasanali's wife, or the servant Khanifa, to remind them not to let the dough stand too long or the pilaf burn on. (Ermakova K., 2019. 123.)

Jumladagi **atlas ko'ynak** so'z birikmasi I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar tomonidan *satin varicolored clothes*, ya'ni *rango-rang atlas kiyim* deb tarjima qilingan bo'lsa, M. Riz talqinida *a silk atlas* (shoyi atlas) ko'rinishida, K. Ermakova esa uni *a fine atlas dress* (yaxshigina atlas ko'ylak) shaklida o'girilgan. Fikrimizcha, ushbu birikma inglizchaga **an atlas dress** shaklida birikma tarkibidagi **atlas** leksemasi transliteratsiya qilinib, izohlab ketilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi, sababi ingliz kitobxoni uchun ushbu so'z mutlaqo notanish hisoblanadi. Demak, bunda transliteratsiya va izohli tarjima usullari qorishmasidan foydalaniladi.

Bundan tashqari, **adras mursak** so'z birikmasi ham tarjimondan ancha mahoratni talab etadigan, izohtalab birikma hisoblanib, ushbu birikma I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar tomonidan tarjima qilinmay ketilgan bo'lsa, M. Riz uni *an adras overcoat* (adras xalat) tarzida, K. Ermakova esa *a khalat of patterned adras* (guldor adras xalat) deb tarjima qilgan. Aslida **adrastanda** ipi tabiiy ipakdan, arqog'i qalin ipdan to'qilgan gazlama hisoblanadi. **Mursak** leksemasi (ba'zan, *munisak*, *murassa* shaklida ham uchraydi) yuqorida tarjimonlar tomonidan keltirilganidek **xalat**dan bichilishi va tikilishi jihatidan biroz farqlanadi. Shunday qilib, **adras mursak** so'z birikmasi transliteratsiya qilinib, *women's upper clothing long to the ankles with long sleeves made of adras* (a natural handmade fabric consisting half [silk](#) and half [cotton](#)) shaklida izohlab ketilishi mumkin. Jumladagi **oq shohi dakana** birikmasini Mark Riz inglizchaga *a white silk turban* (oq shoyi salla) deb o'giradi. K. Ermakova talqinida esa *a white silk scarf* (oq shoyi sharf) shaklida va nihoyat, I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar tomonidan *a white silk headscarf* deb o'girilgan. Eng so'nggi tarjimada (a white silk headscarf) asliyatdagi milliy xoslangan so'z birikmasi tarjima matnida o'zining leksik-semantik muvofiqligini topgan, deb hisoblaymiz. Parchadagi *kahrabo tasbih* va *paryosti*q so'z birikmalari har uchala tarjima variantlarida o'z muqobillarini topgan deb hisoblaymiz, ammo I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidov tomonidan

amalga oshirilgan tarjima variantlarida *kahrabo tasbih* birikmasi ***a turquoise abacus***, ya'ni *feruza cho't* (*feruza* toshidan qilingan *cho't*) shaklida ag'darilgan.

Va nihoyat, *ayvonning to'ri* so'z birikmasi K. Ermakova tomonidan ***on the openveranda in the place of honour*** tarzida nisbatan asliyatga yaqin tarjima qilingan. Tahlilga tortilayotgan mazkur birikmasi ***in the place of honour of the veranda*** deb o'girilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

1-jadval Tadqiq etilayotgan parchaning inglizcha tarjimalarining chog'ishtirma tahlili

Asliyat matnidagi realiyalar	I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidov tarjimasi	Mark Riz tarjimasi	Kerol Ermakova tarjimasi	Biz taklif etayotgan tarjima varianti
atlas ko'ylak	<i>satin varicolored clothes</i>	<i>a silk atlas</i>	<i>a fine atlas dress</i>	<i>an atlas dress</i>
adras mursak	—	<i>an adras overcoat</i>	<i>a khalat of patterned adras</i>	<i>an adras mursak</i>
oq shohi dakana	<i>white silk headscarf</i>	<i>a white silk turban</i>	<i>a white silk scarf</i>	<i>a white silk headscarf</i>
kahrabo tasbih	<i>a turquoise abacus</i>	<i>amber prayer beads</i>	<i>amber prayer beads</i>	<i>amber prayer beads</i>
paryostiqlik	<i>the feather pillow</i>	<i>a fur pillow</i>	<i>downy pillows</i>	<i>a fur pillow</i>
ayvonning to'ri	<i>in the terrace</i>	<i>the shade of the veranda</i>	<i>veranda in the place of honour</i>	<i>in the place of honour of the veranda</i>

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, asliyat matnida referentsial ma'nolarni ifodalashda tarjimon uchun qiyinlik tug'diradigan muammolardan biri muqobilsiz yoki ekvivalentsiz leksikalarni o'girishdan iborat. Bunday leksik birliklar yoki so'z birikmalariga tarjima matnida mos keluvchi so'z yoki so'z birikmalarining

uchramasligidadir. Muayyan xalq turmush tarzi, o'sha xalqqagina tegishli bo'lgan milliy xoslangan so'zlar (realiyalar) tarjimondan favqulodda ehtiyotkorlikni talab etadi, chunki ayni shunday milliy xususiyatli so'zlar asarning milliyligini o'zida namoyon etadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham qator realiyalarni uchratish mumkin. Tahlillarimizga tayanib xulosalash mumkinki, asarda boshqa turga nisbatan o'zbek adabiy tiliga arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan hamda o'zbekzabon so'zlashuvchilar tilida faol qo'llanib kelinayotgan milliy xususiyatli so'zlarning ustunlik qilishi ko'zga tashlanadi. Bu esa o'sha davrda o'zbek adabiy tili leksikasi tuzilmasi haqida yorqin tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Realialarni boshqa tillarga o'girishda qator tabdil usullaridan keng qo'llaniladi. Bular *transliteratsiya usuli*, *kalkalash usuli*, *izohli tarjima usuli* va *yaqinlashtirilgan tarjima qilish usuli* hisoblanib, romanning K. Ermakova hamda M. Riz tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarda, asosan, izohli tarjima usullari yetakchilik qilsa, I. Tuxtasinov, O. Mo'minov va A. Hamidovlar talqinida esa transliteratsiya usulidan ko'proq foydalanilgan. Ayrim hollarda, aslyatning sintaktik qurilishini butunlay o'zgartirishga, leksik yoki sintaktik almashtirishlarga ehtiyoj sezilganda *transformatsion* usuldan foydalanish asarda bir qadar ekvivalentlikning qaror topishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Salomov G'. "Tarjima nazariyasiasoslari". – T.: "O'qituvchi"–1983.
2. Влахов С. Флорин С. "Непереводимое в переводе". "Международные отношения". – М.: – 1980.
3. Бархударов Л. С. "Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода)". "Международные отношения". – М.: – 1975.
4. Реформатский А.А. "Введение в языковедение". – М.: – 1996.
5. Влахов С. Флорин С. "Непереводимое в переводе". "Международные отношения". – М.: – 1980.
6. Sirojjiddinov Sh, Odilova G. "Badiiy tarjima asoslari". – T.: "Mumtoz so'z".– 2011.

7. Qodiriy A. “O‘tkan kunlar”. – T.: “Sharq”. –2004.
8. Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A.A. “The Days Gone By” by A. Kadiriy. – T.: “Mashhur-press”. – 2017.
9. Reese M. “Bygone Days by Abbullah Qodiriy”. USA. Middletown, DE. – 2019.
10. Ermakova C. “Days Gone by” by A. Kadiriy”. – Fr.: Nouveau Monde editions. – 2019.

REFERENCES

1. Salomov G. (1983). *“Fundamentals of translation theory”*. Tashkent.
2. Vlahov S., Florine S. (1980). *“Neperevodimoe v perevode”*. Moscow.
3. Barkhudarov L. S. (1975). *Language and translation*. Moscow.
4. Reformatzsky A.A. (1996). *“Vvedenie v yazykovedenie”*. Moscow.
5. Vlahov S. Florine S. (1980). *“Neperevodimoe v perevode”*. Moscow.
6. Sirojjiddinov Sh., Odilova G. (2011). *“Fundamentals of literary translation”*. Tashkent.
7. Qadiri A. (2004). *“Utkan kunlar”*. Tashkent.
8. Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A.A. (2017). *“The Days Gone By” by A. Kadiri*. Tashkent.
9. Reese M. (2019). *“Bygone Days by Abdullah Qadiri”*. USA. Middletown, DE.
10. Ermakova C. (2019). *“Days Gone By by A. Kadiri”*. France. Nouveau Monde editions.